



Tadqiqot.uz

**ЎЗБЕКИСТОН  
ОЛИМЛАРИ ВА  
ЁШЛАРИНИНГ  
ИННОВАЦИОН  
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАРИ  
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Хуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

31 DEKABR  
**№35**

CONFERENCE.uz



**“ЎЗБЕКИСТОН ОЛИМЛАРИ ВА  
ЁШЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН  
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАРИ”  
25-ҚИСМ**

---

**«ИННОВАЦИОННЫЕ НАУЧНО-  
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ  
УЧЕНЫХ И МОЛОДЕЖИ УЗБЕКИСТАНА»  
ЧАСТЬ-25**

---

**«INNOVATIVE SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
RESEARCH OF SCIENTISTS AND YOUTH OF  
UZBEKISTAN»  
PART-25**

**ТОШКЕНТ-2021**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

**“Ўзбекистон олимлари ва ёшларининг инновацион илмий-амалий тадқиқотлари” [Тошкент; 2021]**

**“Ўзбекистон олимлари ва ёшларининг инновацион илмий-амалий тадқиқотлари”** мавзусидаги республика 35-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 декабрь 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 15 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Узбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағищланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

**1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

**2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

**3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

**4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**5.Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

**6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

**7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**ГЕОГРАФИЯ**

<b>1. Zaripova Navbaxor Azamat qizi, Jumaniyazova Zubayda Sultonboyevna</b>	
YEVROPA MAMLAKLATLARI — TRANSPORT GEOGRAFIYASI MAVZUSINI TA'LIM	
TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O'QITISH .....	7
<b>2. Djumayeva Komuna Vahobovna</b>	
ZAMON RIVOJLANISHNING INSON HAYOTI VA EKOLOGIYAGA TA'SIRI .....	9
<b>3. Raximova Inobat Artiqboyevna</b>	
YER SHARINGIN QOBIQLARI .....	11
<b>4. Jumanova Bekposhsha Kuronboyevna</b>	
O'QUVCHILARNI KASBGA YO'NALTIRISHDA GEOGRAFIYA	
DARSLARINING ROLI .....	13



## ГЕОГРАФИЯ

### YEVROPA MAMLAKATLARI —TRANSPORT GEOGRAFIYASI MAVZUSINI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O'QITISH

**Zaripova Navbaxor Azamat qizi,**  
Xorazm viloyati Bog'ot tumani  
21-maktab o`qituvchisi  
navbaxorzaripova748@gmail.com  
Telefon: +998974533100

**Jumaniyazova Zubayda Sultonboyevna**  
Xorazm viloyati Bog'ot tumani  
37-maktab o`qituvchisi

Annotatsiya. O'quvchilar mavzuning mohiyatini tushinib yetishlari bunda Yevropa mamlakatlarning transporti tarmoqlarining hosil bo'lishi, temir yo'llari sistemasi, avtomobil yo'llari, quvur taransporti, havo yo'llari, SUV transporti, elektr energiya tarmoqlari haqida tushuncha berish.

Transport tarmoqlarining mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlantirishdagi ahamiyati, tashqi iqtisodiy aloqalar, yuk va yo'lovchi tashishdagi sig'imi haqida ma'lumot berish.

**KALIT SO'ZLAR:** interfaol metod, guruhlash, "BLIS" so'rov, "Aqliy hujum" tashkiliy – boshqaruv, tushuntirish – motivatsion.

O'quvchilarni diqqatini mustaqil dunyoda transport tarmoqlarini tobora rivojlanib borayotgan, yangi avtomobil yo'llari, temir yo'llari qurilayotgan bo'yicha aniq ma'lumot beriladi. Daryo, dengiz transportining iqtisodiy ahamiyati temir yo'l va avtomobil transportlaridan farqi haqida ma'lumot beriladi

Dars jarayonida o'quvchilarni bilimlarini oshirish maqsadida quyidagi metodlardan foydalilanadi.

Guruhlash. O'quvchilar qatorlar orqali uch guruhga bo'linadi: "Germaniya", "Fransiya", "Italiya" guruhlari. "BLIS" so'rov orqali oldingi darsda o'tilgan mavzu yuzasidan sinf o'quvchilarning bilimini tekshirish. "BLIS" so'rov topshiriqlarining o'ziga xos xususiyatlari: Qisqa vaqtida nazoratni amalga oshirish

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10

O'zingiz to'g'ri deb hisoblagan to'g'ri javoblarni X belgisi bilan, noto'gri deb hisoblagan javoblarringizni O belgisi bilan belgilang.

3. O'quvchi quyidagi shaklda javoblarni belgilaydi:

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
X	X	X	X	X	O	O	O	O	O

4. Nazorat uchun belgilangan vaqt tugagach o'qituvchi o'quvchilarning javob varaqalarini tekshirib chiqadi va baholaydi.

Baholash mezonlari:

- 9-10 ta to'g'ri javob uchun —5 ball
- 7-8 ta to'g'ri javob uchun —4 ball
- 5-6 ta to'g'ri javob uchun —3 ball

Yangi mavzu bayonidan oldin "**Aqliy hujum**" metodi yordamida o'quvchilarning Yevropa mamlakatlari transporti haqidagi bilimlari aniqlab olinadi.

**"Aqliy hujum" metodi**

Bevosita jamoa bo'lib —fikrlar hujumi ni olib borish. Bu uslubdan maqsadmumkin qadar katta



miqdordagi g'oyalarni yig'ilish, talaba (yoki o'quvchi)larni ayni bir xil fikrashdan holi qilish, ijodiy vazifalarni yechish jarayonida dastlab paydo bo'lgan fikrlarni yengishdir.

“AQLIY HUJUM” metodi- biror muammo bo'yicha o'quvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarini to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadigan metoddir.

1. Transport nima?      2. Kim temir yo'lni k'rgan?
3. Yevropa hududida o'tgan temir yo'llardan 3 tasini yo'nalishlari nomini aytинг.
4. Siz yashaydigan joyda temir yo'li o'tadimi? Uning yo'nalish nomini aytинг.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Soliyev A, Maxammadaliyev R, Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya asoslari. T, O'zMU. 2005 yil
2. Internet materiallari. [www.google.uz](http://www.google.uz).



## ZAMON RIVOJLANISHNING INSON HAYOTI VA EKOLOGIYAGA TA’SIRI

Djumayeva Komuna Vahobovna

Sirdaryo viloyati Shirin shahar

2-maktab geografiya fani o’qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungi iqtisodiy o’sish, sanoat rivojlanish va boshqa jarayonlarning inson hayoti va ekologiyaga ta’siri haqida so’z yuritiladi.

**Kalit so’zlar:** ekologiya, inson ekologiyasi, ekologik fojea, antropoekologik sistemalar, fan, texnika, hayot, salomatlik.

Fan va texnika rivojlanib borayotgan hozirgi davrda ijtimoiy yo’nalishdagi tadqiqotlarning ko’lami ortib bormoqda. Shu jumladan, ijtimoiy ekologik izlanishlar miqyosi ham jadal rivojlanmoqda. Bu borada, ayniqsa, aholi salomatligi bilan bog’liq muammolarni tadqiq qilish o’ta dolzarb masalaga aylanmoqda. Shu o’rinda ta’kidlash joizki, “aholi salomatligi” o’ta murakkab va serqirra tushuncha bo’lib, Butunjahon sog’liqni saqlash tashkiloti ustaviga ko’ra, aholi (inson) salomatligi uning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy (sotsial) holati bilan belgilanadi. Aholi salomatligi ijtimoiy borliqning rivojlanishi va tashkil etilishi bilan ham bog’liq. Ijtimoiy muhitning tabiiy borliqqa ta’siri ortib borayotgan hozirgi davrda aholi salomatligiga tasir etuvchi ekologik omillar (yoki geoekologik omillar) iqtisodiy-ijtimoiy sharoitlar bilan birlashib, kompleks tasir etuvchi kuchga aylanib bormoqda. Hududning sanoatlashuvi, urbanizatsiya darajasi, transport to’rining zichligi, ishlab chiqarishning mujassamlashuvi va texnologik qurollanish holati, aholi joylashishi, antropogen va texnogen bosim makonning nozogeografik turlanishiga, umuman olganda, ijtimoiy omil yoki muhit tabiiy ekologik sharoiti bilan birgalikda muhim ta’sir etuvchi kuchga aylangan.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning aksariyatida xo’jalik sohalarining ekstensiv tarzda olib borilishi tabiiy muhitning izdan chiqishiga, ijtimoiy muammolarning yanada chuqurlashuviga olib kelmoqda. Shunday mintaqalar qatoriga O’rta Osiyo mamlakatlari ham kiradi. Mintaqaning adir, cho’l sharoiti aholi turmush-tarziga ma’lum darajada qiyinchilik tug’dirishi bilan birga inson ta’sirida kuchli degradatsiyaga uchramoqda. Mintaqqa aholisining salomatligi va ijtimoiy faoliyatining yomonlashuvida Orol dengizi fojeasi asosiy o’ringa ko’tarilmoqda. Dengizning 500 km radius qismidagi atrofi jahon hamjamiyati tomonidan “Ekologik fojea” hududi deb e’tirof etilgan.

Aholi salomatligi inson taraqqiyotini belgilovchi asosiy ko’rsatkichlardan biridir. Ushbu muammo hududning ekologik tizimi bilan chambarchas bog’liq bo’lishiga qaramasdan, uni geografik o’rganish masalalari yaqin o’tmishtga borib taqaladi. Xusuan, bunday tadqiqotlar hozirda ko’pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda shakllanish bosqichida bo’lsa, jahoning rivojlangan mamlakatlari, shu jumladan, MDH mamlakatlarida ancha taraqqiy etgan.

Aholi sonining ortib borishi hamda unga mutanosib ravishda tabiiy muhitga bo’lgan ta’sirning kuchayishi o’tgan asr davomida o’nglab bo’lmas turli darajadagi ekologik muammolarni insoniyat oldida ko’ndalang qilib qo’ydi. Yangi asrda Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT) tomonidan “ming yillik barqaror rivojlanish” konsepsiysi ishlab chiqildi. Unda atrof muhit, aholini ijtimoiy himoyalash, savodxonligini oshirish, salomatligini tiklash, onalik va bolalik muhofazasi, bolalarni aqliy va jismoniy rivojlanishini ta’minlovchi va yana bir qator ijtimoiy masalalar o’rin olgan. “Inson ekologiyasi” fani antropoekologik sistemalarning kelib chiqishi, yashashi va rivojlanishi qonuniyatlarini o’rgatadi. Antropoekologik sistemalar – muhit bilan dinamik muvozanatda bo’lgan va shu munosabat orqali o’z ehtiyojlarini qondiradigan odamlar jamoasidir. Antropoekologik sistemalarning tabiiy ekosistemalardan asosiy farqi – uning tarkibida odamlar jamoalarining mavjudligidir. Ma’lum hududda yashaydigan odamlar jamoasining faolligi ularning atrof muhitga ko’rsatadigan ta’sir darajasi bilan aniqlanadi. Aholi sonining ortib borishi bilan birga oziq-ovqat mahsulotlariga, xom ashyoga, suv resurslariga, chiqindilarni joylashtirishga ehtiyojlar ham ortib boradi. Bu esa, o’z navbatida, tabiiy muhitga ta’sirni kuchaytiradi, biotik va abiotik omillardan foydalanishni jadallashtiradi. Sog’liqni saqlash choralarining yaxshi yo’lga qo’yilishi, tibbiyot fanining yo’lga kiritgan yutuqlari, insonlarning o’rtacha umr ko’rish muddatining uzayishi, bolalar o’limining kamayishi natijasida sayyoramizda aholi sonining jadal o’sishi – XX asrning asosiy demografik o’ziga xosligidir.



Insonekologiyasini o'rganishdamuhitbiogeografikxususiyatlarining odamlar populyatsiyasining biologik o'zgaruvchanligiga ta'siri, antropoekologik sistemalarda insonning salomatligi masalasi katta ahamiyatga egadir. Odam ekologik omillarning ta'sir obyekti bo'lishi bilan birga, o'zi ham muhitga ta'sir qiladi. Odamning ekologik omil sifatida o'ziga xosligi, uning tabiatga ta'sirining ongli, maqsadga muvofiqli va kuchli bo'lishidir. Har qanday biologik tur cheklangan energetik resursga ega, shuning uchun uning tabiatga ta'sir etish imkoniyati cheklangandir. Yashil o'simliklar Quyosh energiyasidan foydalanadi, boshqa organizmlar esa o'zidan avvalgi oziq darajasining organik moddalari energiyasi hisobiga yashaydi. Odam o'zining ongli faoliyati jarayonida juda kuchli energiya manbalari – yadro va termoyadro reaksiyalarini yaratdi. Natijada, insonning imkoniyatlari kengaydi. U sayyoraning har qanday ekologik bo'shilqlarini egallay olish qudratiga egadir.

Insonning ekologik omil sifatida o'ziga xosligi yana uning faoliyati faol, ijodiy xarakterda ekanlidir. Inson o'z atrofida sun'iy muhit yarata olishi ham uni boshqa ekologik omillardan ajratib turadi. Inson uchun tashqi muhitning asosiy omillaridan biri ovqatdir. Ovqat tufayli organizmda sarflanadigan energiya o'rni to'ldiriladi, xujayra va organizmning plastik almashinishi ta'minlanadi. Ovqat sifatli va kaloriyaga boy bo'lishi, unda oqsil, yog' va uglevodlardan tashqari vitaminlar yetarli bo'lishi zarur. Organizm uchun fermentlarni faollashtiruvchi oqsillar va biologik faol moddalarning tarkibiy qismiga kiruvchi mineral moddalar ham zarurdir. To'yib ovqat yemaslik yoki ovqatning tarkibida zarur moddalar yetishmasligi organizmdagi har xil funksiyalar buzilishiga sabab bo'ladi. Masalan, ovqat tarkibida oqsil va vitaminlar yetishmasligi o'sish va rivojlanishning susayishiga sabab bo'ladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. N.K.Komilova. SH.Z.Jumaxanov. F.T.Rajabov. Inson geografiyasi. Toshkent. 2018.
2. Soliyev A. Iqtisodiy geografiya: nazariya, metodlar va amaliyot. –T.: “Kamalak”, 2013.



## YER SHARING QOBIQLARI

Raximova Inobat Artiqboyevna  
Xorazm viloyati Yangibozor tumani  
7-son mактабning geografiya fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yer sharining asosiy qobiqlari, ularning tuzilishi, qalinligi, tarkibi va qatlamlari haqida malumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** yer shari, qobiq, atmosfera, gidrosfera, litosfera, biosfera, qatlam.

Yer shari asosan bir necha kontsentrik qobiqlardan iborat bo'lib, uning zinchligi sirtidan markaziga qarab oshib boradi. Bu qobiqlar yig'indisi geosfera deb ataladi. Geosfera o'z navbatida atmosfera, gidrosfera, litosfera va biosfera deb ataluvchi qobiqlardan iborat. Yerning markaziy qismi yadro deb ataladi.

**Atmosfera.** Yer sharini o'rab turgan xavo qatlami atmosfera deb ataladi, u o'z navbatida troposfera, stratosfera va ionosfera qatlamlaridan iborat. Atmosferaning qalinligi taxminan 1300 km ga teng.


**Troposfera** atmosferaning quyi termodinamik qobigi bo'lib, qalinligi qutbda 7–10 km, ekvatorda 16–18 km. Uning tarkibida azot 75,5 %, kislorod 23,2 %, argon, karbonat kislota gazi, suv bug'lari va boshqa gazlar 1,3 % ni tashkil etadi. Troposfera atmosfera massasining 90 % ni tashkil qiladi. Traposfera havosining xarorati stratosfera qatlami bilan chegaralangan qismida minus 40–50 °C ga teng. **Stratosfera** qatlaming qalinligi 80–85 km. Stratosferada azot, geliy va vodorod gazlarining miqdori oshsa, og'ir gazlar–kislorod, argon, karbonat kislotosi gazi va boshqalarning miqdori kamayadi, gaz temperatura 55–60 km balandlikda 75 °C ga yetsa, keyin asta-sekin pasayadi va atmosferaning yuqori chegarasi bo'lgan ionosfera chegarasida yana oshadi.

**Ionosfera** qatlami stratosfera ustida joylashgan bo'lib, atmosferaning eng qalin (80–1000 km) qatlami xisoblanadi. Ionosferada gazlar juda kam siyraklashgan bo'lib, uning tarkibida yengil gazlardan vodorod va geliy uchraydi. Yer yuzasidan uzoqlashgan sari gazlarning xarorati pasayib boradi.

**Gidrosfera.** Yerning suv qatlamiga dengiz, okean, daryo, ko'l suvlari, xamda Arktika va Antarktida materiklaridagi muzliklar kiradi. Gidrosfera suvlari bilan yer osti suvlari uzviy bog'liqidir.

Gidrosferaning geosferalardan farqi u yerning tutash qobiklarini tashkil eta olmaslididir. U yer yuzasining 70,8% ini, ya'ni 361 mln. km. kv. maydonni (yerning quruqlik qismi 29,2% ni, ya'ni 149 mln. km. kv. maydonni tashkil etadi) egallaydi. Gidrosferaning o'rtacha qalinligi 3,75 km ga, eng qalin joyi 11,521 km ga (Filippin cho'kmasi) teng. Gidrosfera qatlami o'zining tarkib topgan vaqtidan suvlarning aylanma xarakatlanishi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun xam u yer yuzasining rivojlanishida kuchli geologik faktor xisoblanadi. Gidrosfera yerda xayotning paydo bo'lishiga asosiy omildir. Shu boisdan hayotni suvsiz tessavur qilib bo'lmaydi.

**Litosfera.** Yerning tashqi qattiq qismi litosfera (tosh qobik) deb ataladi (1-rasm).



1-rasm. Yerning ichki tuzilishi sxemasi.



Litosferaning qalinligi taxminan okean suvlari ostida 3-18 km ga va tog'liklarda 50–84 km ga teng. Uning eng qalin qismi Tyanshan tog'larida deb xisoblanadi.

Yerning qattik qismi geofizika, seysmologiya va graviyametriya usullari bilan 15–20 km chuqurlikkacha o'r ganilgan. Burg' quduqlari yordamida esa faqat 15 km dan oshiqroq qismdagi qatlamlar tekshirilgan.

Litosfera qobig'i turli jins va minerallardan tashkil topib, fizik xossasi va tarkibi bilan farq qiluvchi ayrim kimyoviy birikmalardan yoki sof kimyoviy elementlardan iborat. Litosfera tarkibidagi turli tog' jinslarini tashkil etuvchi kislород, kremniy, alyuminiy, temir va kalsiy ko'p tarqalgan elementlar xisoblanadi.

Atmosfera, gidrosfera va litosfera qobiqlari o'zaro uzviy bog'lik bo'lganligi uchun yer yuzasining tarkibi va tuzilishida o'zgarishlar yuz berib turadi.

Litosferaning yuqori qismi asosan cho'kindi, magmatik va metamorfik tog' jinslaridan tashkil topgan bo'lib, kimyoviy va fizikaviy xossalariiga qarab ularni granit–metamorfik va bazali qatlamlarga bo'lish mumkin.

**Biosfera.** Tarkibi, tuzilishi, energetikasi tirik organizmlar faoliyati bilan chambarchas bog'langan biologik qobiq, ya'ni biosferaning mavjudligi Yerning sayyora sifatidagi o'ziga xos eng muhim xususiyatidir. Biosferaga Yerning faqat hozir hayot tarqalgan ustki qismigina emas, balki boshqa geosferalarning tirik modda kirib boradigan hamda uning faoliyati ta'sirida qachonlardir qaytadan o'zgargan qismlari ham kiradi. Shu sababdan biosfera tirik organizmlarning faqat hozirgi yashash muhitini emas, balki qadimgi muhitini ham o'z ichiga oladi.

Turli ma'lumotlarga ko'ra, Yerda 2,5 million turga yaqin tirik organizmlar tarqalgan. Shundan faqat 1/5 qismini o'simliklar tashkil qiladi. Hayvonlar orasida turlar soni jihatidan bo'g'imoyoqlilar birinchi (1500000 turdan ortiq), mollyuskalar — ikkinchi (130000 tur), xordalilar (40000 tur) uchinchi, o'simliklardan yopiq urug'lilar birinchi (350000 tur), zamburug'lar (100000 tur) ikkinchi o'rinda turadi. Biroq turlar soni individlar soniga har doim mos kelavermaydi, chunki o'simlik va hayvonlar ayrim sistematik guruhlarining turlari kam bo'lgani holda individlar soni haddan tashqari ko'p bo'lishi mumkin. Shu sababdan o'simliklar va hayvonot dunyosini ta'riflashda biomassa va biologik mahsuldarlik tushunchalaridan foydalaniladi. Tarkibi jihatidan biosfera moddasi tirik (organizmlar), biogen (tirik organizmlar barpo etgan mahsulotlar), biokos (biologik va anorganik jarayonlarning birgalikdagi ta'siri natijasida ham hosil bo'lgan) va kos (anorganik) moddalarga bo'linadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Umumiyl o'rta ta'lif maktablarining geografiya fani darsliklari.
2. Islomov O.I. "Umumiyl geologiya" «O'qituvchi» 1991 yil.
3. Shoraxmedov SH.SH. "Umumiyl va tarixiy geologiya" «O'qituvchi» 1989 yil.
4. Qurbonov A.S. "Geologiya" «O'qituvchi» 1991 yil.
5. Internet materiallari.



## O’QUVCHILARNI KASBGA YO’NALTIRISHDA GEOGRAFIYA DARSLARINING ROLI

Jumanova Bekposhsha Kuronboyevna

Xorazm viloyati Yangibozor tumani

4-son umumiyoq o’rta ta’lim  
maktabining geografiya fan o’qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqlada o’quvchilarni kasbga yo’naltirishda geografiya darslarining roli haqida, geografiya faniga oid kasblar bilan tanishtirish masalalari to‘g‘risida mulohaza yuritilgan.

**Kalit so’zlar:** kasb, geografiya, tabiat, geologiya, ekologiya, kasblar, tabiiy jarayon, iqlim, dars.

Respublikamizda istiqlol yillardan boshlab yoshlar tarbiyasi, xususan, ta’lim tizimi, o’quvchilarni kasb-hunarga yo’naltirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, soha rivojiga xizmat qilishga qaratilgan ko’plab qonunlar va qonunosti hujjatlari qabul qilinmoqdaki, ularda ta’lim tizimining uzlusizligi, davomiyligini ta’minlamoqda.

Bu borada respublikamizda qabul qilingan «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy Dasturini alohida e’tirof etish joiz. Mazkur qonun hujjatlarida umumiyoq o’rta ta’lim o’quvchilarining muayyan bilimlarni egallashlari barobarida ularda bilim olishga bo‘lgan ehtiyoj, mustaqil va ijodiy fikrlash, tashkilotchilik qobiliyatları, amaliy tajriba va mehnat ko’nikmalarini rivojlantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ma’naviy-axloqiy fazilatlarni, atrof-muhitga ongli munosabatni tarkib toptirish, ularni kasblar bilan tanishtirish orqali kasbga yo’llash ko’rsatilgan. Shuningdek, o’quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash, ta’lim-tarbiya ishlarining samarali shakllari va usullarini ishlab chiqish hamda amaliyotda joriy etish ko’zda tutilgan.

Dasturning amaldagi bosqichlari ta’lim jarayonini sifatli o’quv adabiyotlari va ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan ta’minlash zarur vazifalardan biri deb belgilangan bo‘lib, geografiya darslarida o’quvchilarni kasbga yo’naltirish borasidaga amaliy takliflar juda muhimdir. Shularga asoslangan holda quyidagi ayrim mulohazalarimizni bayon etishimiz mumkin.

Ta’kidlash joizki, geografiya darslarida o’quvchilarni kasbga yo’naltirishda uch yo’nalishga e’tibor qaratish joiz: tabiiy, iqtisodiy va tabiatni muhofaza qilishga oid tushunchalarga.

Dastlab texnologik tushunchalarga e’tiboringizni qaratsak. Bu guruhga tabiiy jarayonlar, tabiatdagi muhim o’zgarishlar (ob –havo, iqlim , suv toshqinini , vulqon otilishi, yerning ichki va tashqi kuchlari ta’siridagi) taxlil qilish yuzasidan amalga oshiriladigan jarayonlar, tuproq taxlili va suvdan tuz va boshqa minerallarni ajratib olish, geografik prognoz natijasida yo’llar , bino va inshootlarni, turli obektlarni joylashtirishni ishlab chiqilishi haqidagi tushunchalar misol bo‘ladi.

Iqtisodiy tushunchalarga esa jahon mamalakatlarini ijtimoiy iqtisodiy sohani bir biriga chambarchas bog’lagan holda sanoat va qishloq xo’jaligini rivojlantirish hamda ularni yerosti va yer usti boyliklari bilan ta’milanganliklari, ulardan xalq xo’jaligida foydalanishdan ko’riladigan foyda asosida shakllantiriladigan tushunchalar kiradi.

Geografyani o’qitishda tashqi muhitning biosferaning rivojlanishiga ko’rsatgan ta’siri, tuproq, suv, havo, tirik organizmlarni antropogen ta’sir natijasida turli salbiy jarayonlarni kelib chiqish sabablarini tushuntirish orqali tabiatga ongli munosabat va tabiatni muhofaza qilish tushunchalari shakllantiriladi.

Geografiyani o’qitishda tushunchalarni shakllantirish barobarida ko’nikmalar ham tarkib toptirilishini e’tibordan qochirmsaslik o’ta muhimdir. Bunda har bir o’quvchining ta’sirchanligi, qabul qilish qobiliyatini ham hisobga olish lozim.

Hech kimga sir emas, tabiat olami go’daklik davridayoq bola e’tiborini o’ziga jalb qiladi. Bola maktab yoshiga yetganida quyosh, yer, oy va kun kabi tushunchalarga ega bo‘ladi; o’rganganlari ko’magida ular to‘g‘risida bir talay narsalarni bilib oladi. Shuning uchun umumiyoq o’rta ta’lim maktabalarida kasbga yo’naltirish ishlari o’quvchilarning kasbga oid tushunchalarini shakllantirishdan iborat bo‘lishi kerak. Bunday tushunchalar orqali o’quvchilar ongida shakllanayotgan kasbiy motivatsiyani boshqarish mumkin. Bunday ishlarning 5-9 sinflarda olib borilishi ayni muddao bo‘ladi. Chunki bu davrda ular romantik bo‘lishadi; ularning xulq-atvorida jamiyatga va atrof-muhitga nisbatan shaxsiy munosabatlari shakllana boshlaydi. Dastlab ularni



kasbning mazmuni emas, balki uning jozibadorligi va jamiyatdagi mavqeyi ko‘proq qiziqtiradi. Shuning uchun bu davrda ularni qiziqtiradigan kasblarning mohiyatini ochib berish, u yoki bu kasbni egallash uchun zarur bo‘lgan qobiliyat va mahorat to‘g‘risida tushuncha berib borish zarur.

Darsliklardagi materiallar orqali o‘quvchilarga geograf, geolog, ekolog, kartograf, metrolog, agronom, fermer, geografiya o‘qituvchisi kabi kasblar to‘g‘risida tushuncha berish mumkin.

Kasbga yo‘naltirishda o‘quvchilarning geografiya sohasida ilmiy izlanishlar olib borayotgan olimlar va mutaxassislar bilan uchrashuvlarini tashkil etish, darslarda kasbga yo‘naltiruvchi mashqlardan foydalanish, tematik kechalar, bayramlar, konferensiya darslari, «kasbni o‘ylab top» kabi o‘yinlarni o‘tkazish ham katta samara beradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, kasbiy tushunchalar, qiziqish, layoqat, qobiliyat, u yoki bu kasbni tanlash uchun zarur bo‘lgan motivatsiya o‘zaro dinamik bog‘langan tushunchalar orqali qiziqish paydo bo‘лади. Qiziqish muayyan faoliyatni yuzaga chiqaradi. Faoliyat orqali qobiliyat rivojlanadi. Geografiyaga qiziqish, bir tomonidan, kasb tanlashga, ikkinchi tomonidan, barcha geografiya fanlarini o‘rganishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar**

1. Umumiy o‘rtta ta’lim davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi.
2. Umumiy o‘rtta ta’lim maktablarning geografiya fani darsliklari.
3. [www.uzedu.uz](http://www.uzedu.uz)
4. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

# **“ЎЗБЕКИСТОН ОЛИМЛАРИ ВА ЁШЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАРИ”**

**(25-қисм)**

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович

**Мусаҳҳих:** Файзиев Фаррух Фармонович

**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиши муддати: 31.12.2021

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000